

# O'ZBEKISTON AKT yangiliklari

## *Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi*



Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlarning negizida insonparvarlik, mehr-muruvvat va eng asosiysi, xalq manfaatlarini ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 1-dekabrda «Nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni imzolagan edi. Shu munosabat bilan 2018/2019 o'quv yilidan boshlab oliy ta'lim muassasalariga abituriyentlarni qabul qilishning umumiy sonidan nogironligi bo'lgan shaxslar uchun qo'shimcha ravishda ikki foizli kvota ajratish tartibi joriy etildi.



2018-yil 2-iyundagi Hukumat qarori bilan tasdiqlangan qo'shimcha ikki foizli davlat granti kvotalarining taqsimot qilish tartibiga asosan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetiga ham 20 nafar jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar o'qishga qabul qilingan edi.

1992-yilda Birlashgan Millatlar Tashkiloti nogironlarining O'n yilligi yakunida (1983-1992) BMT Bosh Assambleyasi o'zining №47/3 rezolyutsiyasiga asosan jamiyat hayotining barcha sohalarida nogironlar huquqlarini ilgari surish, shuningdek, keng jamoatchilik e'tiborini nogironlar muammolariga qaratish maqsadida 3-dekabrni Xalqaro nogironlar kuni (International Day of Persons with Disabilities) deya e'lon qildi. Ushbu kun munosabati bilan mazkur oliy ta'lim muassasasida jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun alohida sharoitlarga ega bo'lgan yashash xonalari ta'mirdan chiqarilib, foydalanishga topshirildi. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vaziri Shuxrat Muxammadjonovich Sadikov mazkur universitetga tashrif buyurib, jismoniy imkoniyati cheklangan talabalar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan tanishdi hamda talabalar bilan suhbatlashib, ularning yashash sharoitlarini yanada yaxshilash uchun qanday ishlar qilinishi kerakligi bilan qiziqdi.

## *Davlat raqobat qo'mitasi «COSCOM» MCHJning aksiyalarini sotib oldi*



O'zbekiston Respublikasi Xususiy lashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi 2018-yil 5-dekabrda «TELIA COMPANY AB» kompaniyasi bilan «Coscom» MCHJning ustav kapitalidagi 100% ulushini sotib olish bo'yicha kelushigva erishdi.

Ma'lumot uchun: «Coscom» MCHJ XK hozirda «UCell» savdo belgisi ostida O'zbekistonda 7,3 million abonentga mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatib kelmoqda.

Manba: [www.mtc.uz](http://www.mtc.uz)

**TechReh – tibbiyotdagi innovatsion texnologiyalar**

Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filialida Italiyaning Sannio hamda Fransiyaning Sarbonna kabi nufuzli universitetlarining professor-o'qituvchilari ishtirokida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi.

Mamlakatimizda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini tibbiyot sohasida keng qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashni yo'lga qo'yish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarining ilg'or yutuqlarini tibbiyot sohasida, jumladan, reabilitatsiyada qo'llash bo'yicha xalqaro ish tajribalarini o'rganish maqsadida Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Qarshi filialida Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasida «TechReh – tibbiyotdagi innovatsion texnologiyalar» nomli loyihaga oid ilmiy-amaliy konferensiya o'tkazildi.

Mazkur konferensiyada Italiyaning Sannio hamda Fransiyaning Sarbonna kabi dunyo miqyosidagi nufuzli universitetlar professor-



o'qituvchilari ishtirok etdilar. Konferensiyada ishtirok etgan xorijlik professor-o'qituvchilar ushbu oliy ta'lim muassasasida tashkil etilgan Yevropa Ittifoqining Erasmus+ dasturi doirasidagi TechReh xalqaro loyihasi bilan tanishdilar.

**O'zbekiston delegatsiyasi Belarus davlat informatika va radioelektronika universitetida**

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filiali hamda Belarus davlat informa-



tika va radioelektronika universiteti o'rtasida masofaviy o'qitish tizimini yo'lga qo'yish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida yuqori malakali mutaxassislarini tayyorlash hamda xorijiy oliy ta'lim muassasalarining mutaxassislarini ta'lim jarayoniga keng jalb etish maqsadida, oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri Inomjon Majidov rahbarligidagi delegatsiya a'zolari mazkur universitetda bo'lib, u yerda yaratilgan shart-sharoitlar bilan yaqindan tanishdilar. Uchrashuv davomida delegatsiya a'zolari va Belarus davlat informatika va radioelektronika universiteti va Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Qarshi filiali professor-o'qituvchilari bilan to'g'ridan-to'g'ri onlayn muloqoti tashkil etildi. Uchrashuvda TATU Qarshi filiali hamda BDIRU o'rtasida masofaviy o'qitish tizimini yo'lga qo'yish, ikki universitet hamkorligida mutaxassisliklar bo'yicha qo'shma fakultetlar ochish, professor-o'qituvchilarning ikki tomonlama o'zaro tajriba almashishlari hamda o'quv jarayonlarini yuqori pedagogik innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etish masalalari haqida BDIRU rektori Bogush Vadim Anatolyevich bilan o'zaro kelishib olindi.

Shuningdek, TATU Qarshi filiali direktori Adilbek Turg'unov ham o'zaro hamkorlik aloqalarini rivojlantirish bo'yicha o'zining takliflarini bildirib o'tdi. Mazkur uchrashuv ikki tomonlama hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Manba: [www.edu.uz](http://www.edu.uz)

**«Bank tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash» mavzusida o'quv seminari o'tkazildi**

Joriy yilning 6-dekabr kuni «Qishloqqurilishbank» aksiyadorlik tijorat bankida Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga ko'maklashish markazi bilan birgalikda «Bank tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash» mavzusida o'quv seminari o'tkazildi.



Mazkur seminar «Qishloqqurilishbank» ATB filiallarining axborot xavfsizligiga mas'ul xodimlari ishtirokida o'tkazildi. Seminarda o'z ma'ruzalari bilan Axborot xavfsizligi va jamoat tartibini ta'minlashga ko'maklashish markazi xodimlari F. Husenov va I. Saidvaliyevlar ishtirok etdilar. Seminar davomida Bank sohasida axborot xavfsizligini ta'minlashning bugungi kundagi ahamiyati, bank faoliyatida axborot xavfsizligiga tahdidlar, shuningdek, xodimlar tomonidan yo'l qo'yiladigan xatolar haqida so'z yuritildi. Seminar davomida tinglovchilar o'zlarini qiziqtirgan savollariga javob oldilar.

Manba: [www.infosec.uz](http://www.infosec.uz)

### Yoshlar bayotida axborot texnologiyalarining o'rni mavzusiga bag'isblangan anjuman o'tkazildi



2018-yilning 7-dekabr kuni O'zbekiston yoshlar ittifoqining markaziy binosida «Innovatsion texnologiyalar va yoshlar: imkoniyatlar, vazifalar va istiqbollari» mavzusiga bag'isblangan anjuman o'tkazildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining a'zolari, «Elektron hukumat» tizimini rivojlantirish markazi va O'zbekiston Yoshlar ittifoqi, shuningdek, qator vazirlik va idoralar vakillari ishtirok etishdi. Tadbirda Markaz direktori o'rinbosari M.Rasulov «Yoshlarning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yo'nalishidagi tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash: muammo va yechimlar» mavzusida taqdimot o'tkazdi. U yoshlarga yaratilayotgan imkoniyatlar, xususan, Open Data Challenge (Xakaton) tanlovi haqida so'zlab berdi. «Mana shunday tadbirlarning ko'proq o'tkazilishi qo'yilgan maqsadlarni tezroq amalga oshirishga sabab bo'ladi», — dedi M. Rasulov.

Anjumanda, shuningdek, yoshlar orasida innovatsion texnologiyalarni jadal rivojlantirishga to'sqinlik qiluvchi ayrim muammolar borligi ta'kidlandi. Masalan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan bog'liq kovorking markazlarining ko'plab loyihalari faqatgina poytaxt va yirik shaharlarnigina qamrab oladi. Tadbir so'ngida ishtirokchilar o'zaro fikr almashib, mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha o'z takliflarini berishdi.

Manba: [www.egovernment.uz](http://www.egovernment.uz)

### MUNIS — «Banklararo universal tarmoqli axborot tizimi» dasturiy majmuasi ishlab chiqildi

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki «Axborotlashtirish Bosh markazi» davlat unitar korxonasi mutaxassislar tomoni-

dan MUNIS - «Banklararo universal tarmoqli axborot tizimi» dasturiy majmuasi ishlab chiqildi. «MUNIS» dasturiy majmuasini ishlab chiqishdan maqsad O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki uchun bank tizimida xizmat ko'rsatuvchi provayderlarining billing tizimlari bilan o'zaro hamkorlikda yagona markaz yaratishdan iborat.

Dasturning funksional imkoniyatlari bo'lib, «MUNIS» tizimining elektron to'lov shakli asosida elektron to'lov hujjatlarini shakllantirish, to'lovlarni amalga oshirishda bank tizimining talablarini ta'minlash, to'lovlarni qabul qilishda xizmat ko'rsatuvchi provayderlarning billing tizimi talablarini ta'minlash, bankning talab va majburiyatlarini to'lash va hisobga olishni elektron to'lov hujjatlari asosida amalga oshirish, banklarning aniq pozitsiyalarini hisoblash asosida «Hisob markazi - yagona korrespondentlik hisob raqami» axborot tizimi orqali kliring amalga oshirish hisoblanadi. Mualliflar guruhi ushbu dasturlari uchun DGU 05697 -raqamli guvohnoma oldilar.

Manba: [www.ima.uz](http://www.ima.uz)

### 7 milliondan ortiq iste'molchilar 2021-yil yakunigacha avtomatlashtirilgan tizimga to'liq ulanadi

Prezidentimiz tomonidan 2018-yil 23-oktabrda imzolangan «Elektr energetikasi tarmog'ini jadal rivojlantirish va moliyaviy barqarorligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3981-son Qaroriga asosan 7 milliondan ortiq iste'molchilarning barchasi elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimiga ulanadi. 2021-yil yakuniga qadar elektr energiyasi iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi qamrovini abonentlar umumiy sonining 100 foizigacha yetkazilishi belgilangan.

Avtomatlashtirilgan tizim iste'molchi bilan ta'minotchi o'rtasida aniq hisob-kitob yo'lga qo'yish orqali ishlaydi, ya'ni, iste'molchi o'zining hisobi (balansi) holati bo'yicha doimiy xabardor etib boriladi. Bordi-yu, qarzdorligi mavjud iste'molchi bo'lsa, unda u tizimdan o'chiriladi. To'lovni vaqtida amalga oshiradigan iste'molchilarga esa uzluksiz hamda sifatli elektr energiyasi yetkazib berilishi to'liq ta'minlanadi. Bundan tashqari, iste'molchilarga yetkazib berilayotgan elektr energiyasi uchun tabaqalashtirilgan tarif bo'yicha hisob-kitob qilish imkoniyati ham yuzaga keladi.

Manba: [www.uzbekenergo.uz](http://www.uzbekenergo.uz)

### Tayanch o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqish takliflari 2019-yil 1-avgustgacha ishlab chiqiladi

Ijtimoiy tarmoqlarda va Internet nashrlarida 2019-2020 yillarda umumta'lim maktablaridagi tayanch o'quv rejasi to'g'risida hujjat chop etildi. Ushbu hujjatda ayrim fanlarning dars soatlarini kamaytirilishi nazarda tutilgan. Ushbu hujjat asosida ba'zi darslik mualliflari, o'qituvchi va pedagoglar nima uchun u yoki bu fanning soati kamayishi kerak degan savol bilan bir qator maqolalar chop etdilar. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi shuni ma'lum qiladiki, 2019-2020 o'quv yillari uchun umumta'lim maktablarining tayanch o'quv rejasi hali tasdiqlanmagan. Hozirgi kunda Xalq ta'limi vazirligi maktab ta'limi tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan ko'plab tashabbuslarni amalga oshirish ustida ish olib bormoqda. Ba'zi loyihalar ekspertlar tomonidan taklif bildirilgan bo'lsa, yana ba'zilari moliya va boshqa sohaga oid masalalarga mas'ul davlat organlari tomonidan takliflar berilmog'unda.

Shunday tashabbuslardan biri O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3907-son Qarori bilan tasdiqlangan. Mazkur

Qarorning 18-bandiga asosan, Xalq ta'limi vazirligi Moliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi bilan birgalikda umumiy o'rta ta'limning amaldagi tayanch o'quv rejasini qayta ko'rib chiqib, 2019-2020 o'quv yilidan boshlab 10 foizga qisqartirish hamda mazkur fanlar bo'yicha dars soatlari qisqartirilgan mutaxassislarni talab yuqori bo'lgan boshqa o'quv fanlarga bepul qayta tayyorlab o'tkazishi lozim. Mazkur yo'nalish bo'yicha takliflar 2019-yil 1-avgustga qadar ishlab chiqilishi belgilangan.

Hozir tegishli vazirlik va idoralar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 14-avgustdagi «Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarorining 18-bandini bajarish yuzasidan takliflar tayyorlash ustida ish olib borishmoqda. Ushbu jarayon davomida, shubhasiz, barcha fan predmetlari ularning zamonaviy talablarga javob bera olishi bo'yicha tahlil etiladi, bu esa darsliklarni yangilanishiga olib keladi. O'quv rejasini qayta ko'rib chiqishdan asosiy maqsad — bitiruvchilar hayotda o'z o'rinlarini topishlari va muvaffaqiyatga erishishlari uchun kerakli bo'lgan bilim va ko'nikmalar berish orqali ta'lim sifatini yaxshilash. O'quv rejasi bo'yicha qaror ayrim kishilarning nuqtai nazaridan emas, balki mamlakat va bolalar manfaatlarini hisobga olgan holda qabul qilinishi lozim.

Xalq ta'limi vazirligi barchani avvaldan xulosa chiqarishga, aksincha, sifatli o'quv rejasini tuzish va darsliklar yaratish hamda xalq ta'limi tizimiga oid boshqa masalalar muhokamasida faol ishtirok etgan holda o'z hissasini qo'shishlarini so'raydi. Muhokamalarda davlat ta'lim standartlari negizida bir necha ssenariylar ko'rinishidagi o'quv rejalari ishlab chiqiladi. Yakuniy ssenariylar loyihalari keng jamoatchilik muhokamasiga qo'yiladi. Xususan, hozirda barcha xohlovchilar mavjud darsliklar muhokamasida ishtirok etishlari mumkin, buning uchun o'z tavsiya va takliflaringizni [www.eduportal.uz](http://www.eduportal.uz) portaliga qoldirishingizni so'raymiz.

### **Mualliflik va turdosh huquqlarning qonuniy himoyasi kuchayadi**

Joriy yilning 5-dekabr kuni parlament quyi palatasining Innovatsion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari qo'mitasi bilan O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligi hamkorligida «O'zbekiston Respublikasida mualliflik va turdosh huquqlarning huquqiy himoyasi xalqaro standartlarini joriy qilish» mavzusida seminar tashkil etildi. Unda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlari, intellektual mulk agentligi mutaxassislari, tegishli davlat organlarining mas'ul xodimlari, ekspertlar hamda ommaviy axborot vositasi vakillari ishtirok etdilar.

Ta'kidlanganidek, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining 2018-yil 30-noyabr kuni bo'lib o'tgan navbatdagi majlisida deputatlar tomonidan «Fonogramma tayyorlovchilarning manfaatlarini ularning fonogrammalarini noqonuniy takrorlanishidan muhofaza qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasiga, Butunjahon intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasiga va Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasiga O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni loyihalari qabul qilindi.

Seminarning maqsadi yuqorida ko'rsatib o'tilgan qonun loyihalariga kiritilgan xalqaro shartnomalar va konvensiyalarning san'at, adabiy va badiiy asarlar mualliflari, ijrochilar va ularning fonogrammalarni takrorlash borasidagi huquqlarini muhofaza

qilishdagi ahamiyati to'g'risida kengroq ma'lumot berishdan iborat. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yuqoridagi xalqaro shartnomalarga qo'shilishi munosabati bilan mamlakatimiz o'z zimmasiga olgan majburiyatlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat. Tadbir ishtirokchilari tomonidan intellektual mulk huquqini himoyalash, shuningdek, intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sohasidagi xalqaro shartnomalar talablaridan kelib chiqqan holda, huquqni qo'llash milliy amaliyotini takomillashtirishga oid masalalar qizg'in muhokama etildi.

Seminar ishida qatnashgan ekspertlar shartnomalar ratifikatsiya qilinishi to'g'risidagi qonunlarning qabul qilinishini ijobiy baholab, qisqa muddat ichida mamlakatimizda mualliflik va turdosh huquqlar himoyasi, ishbilarmonlik muhiti va umuman olganda, investitsion muhitni yaxshilanishini ta'kidlab o'tdilar.

Manba: <http://parliament.gov.uz>

### **Moliya vazirligi 2019-yil 1-yanvardan boshlab [www.mf.uz](http://www.mf.uz) sayti orqali vazirlik va idoralar, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ijro holatini tekshirish moduli joriy qilinadi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 9-avgustdagi «Yagona idoralararo elektron ijro nazorati tizimini joriy etish to'g'risida»gi F-5017-son farmoyishi va 2018-yil 5-oktabrdagi «Davlat organlari va tashkilotlarida ijro intizomini yanada mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3962-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Moliya vazirligi tomonidan 2018-yil 12-oktabrda 166-sonli buyrug'i qabul qilindi. «Ijro intizomini nazorat qilish Yagona idoralararo elektron ijro nazorati» dasturi, ya'ni «mf.ijro.uz» elektron dasturiy ta'minot tizimi vazirlik idoralari ichida birinchi bo'lib, Moliya vazirligida joriy qilindi. Mazkur «mf.ijro.uz» elektron dasturi tizimiga o'tishning hujjatlar aylanmasi uchun quyidagi bir qator afzallik va qulayliklari mavjud, jumladan: vazirlikka kirim qilina-yotgan barcha hujjatlar juda qisqa fursatda tegishli mutasaddi rahbar va ijrochilarga yetkaziladi; ijro etilgan hujjatlar haqidagi ma'lumotlar bir vaqtning o'zida «mf.ijro.uz» – Idoralararo yagona hujjatlar dasturi orqali O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi «ijro.gov.uz» bilan integratsiya qilinadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining qarorlarini maxsus jurnal va hisob varaqalarida ro'yxatga olish tartibi, ular bo'yicha hisob kartotekalarining qog'oz shaklida rasmiylashtirilishi va yuritilishi, eng muhimi, kirim qilinayotgan barcha hujjatlarining nusxalarini ko'paytirish jarayonlari bekor qilindi va ortiqcha sarf-xarajat qilinayotgan katta hajmdagi qog'oz tejalib iqtisod qilinadi. Shuningdek, Moliya vazirligi 2019-yil 1-yanvardan boshlab [www.mf.uz](http://www.mf.uz) sayti orqali vazirlik va idoralar, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari ijro holatini tekshirish moduli joriy qilish rejalashtirilgan. Bu esa o'z navbatida, Moliya vazirligi sayti orqali elektron ravishda, «PDF» formatda javob xatlarini yuklab olish imkonini beradi.

Bundan tashqari, vazirlikda aloqa xizmatini yanada takomillashtirish maqsadida «RECEPTION» (71 203-22-44 IP Telefoniya) xizmati tashkil qilindi va 2019-yil 1-yanvardan boshlab vazirlik va idoralar, jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan tegishli boshqarma va bo'limlarga aloqa vositasi orqali ulanish va ma'lumotlar uchun qulaylik yaratiladi. Demak, bugungi kunda «mf.ijro.uz» dasturining vazirlik va idoralar ichida eng birinchi bo'lib, Moliya vazirligida joriy etilganligi «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirilgan muhim amaliy ishlardan biri bo'lganligini alohida ta'kidlash joiz.

Manba: [www.mf.uz](http://www.mf.uz)